



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 14 fevral

№ 1878

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Isokov Anvar Normurodovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Zarafshon shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Navoiy viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Xonbo‘tayeva Dilnoza Usmonaliyevna – sudyalik vakolati muddati davriga Navoiy viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Jo‘rayev Ulug‘bek To‘rayevich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Buxoro shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Sharopov Nodirbek Yunusovich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Ergashev Ilxom Quldoshevich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Sariosiyo tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Akramov Akmal Akramovich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Qumqo‘rg‘on tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Zangiota tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Narmuxamedov Abdulla Abdimajitovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Olmazor tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Yuqorichirchiq tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

GD55288708



X.Yodgorov